

**G'AFUR G'ULOM ASARLARINING XORIJIY TARJIMALARI****Astonova Go'zalxon Raxmonaliyevna***Farg'ona davlat universiteti nemis tili o'qituvchisi*

**Аннотация:** *Мақолада G'afur G'ulom ijodiga oid айрим мулоҳазалар юритилган.*

**Калит сўзлар:** *yozuvchi, ocherk, qissa, publisistika, ijod, kitobxon, adabiyotshunos.*

**Аннотация:** *Статья содержит некоторые комментарии к работе Гафура Гулама*

**Ключевые слова:** *писатель, эссе, рассказ, публицистика, творчество, читатель, литературный критик.*

**Abstract:** *The article contains some comments on the work of Gafur Ghulam.*

**Key words:** *writer, essay, short story, journalism, creativity, reader, literary critic.*

G'afur G'ulom o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan yozuvchilardan biri bo'lib, nazm va nasrda baravar qalam tebratgan adibning o'zbek prozasi ptaraqiyoti ga qo'shgan hissasi adabiyotshunos va tanqidchilarimiz tomonlaridan chuqur o'rganilgan bo'lib, ular yuzasi dan bir qator ilmiy maqolalar chop etilgan Mashhur adabiyotshunos S. Mamajonov tomonidan ijodkorning prozadagi ijodi janrlarga bo'lib o'rganildi. Yozuvchi feleton ocherk publisistika janrlari bilan bir qatorda hikoya nafislikda ham barakali ijod qildi. G'afur G'ulomning «Netay», «Yodgor» «Shum bola» «O'g'rigina bolam» kabi va yana bir qator qissa va hikoyalari hozirgi kunga qadar o'z kitobxoniga ega. G'. G'ulom o'zi yaratgan asarlarda xalq hayoti, tarixi, madaniyati, turli ijtimoiy qatlamga mansub kishilarning ruhiy olami va nutqini yorqin ifoda etgan. Yuqorida qayd etilgan asarlar qatorida yozuvchining «Shum bola» qissasi muallif ijodida muhim ro'l o'ynaydi. Bir qarashda kulgili ko'ringan bu asar ning zamirida hayotiy muammolar, o'sha davr kishilarining turmushi aks etgan. Bosh qahramon obrazida turmushning achchiq sinovlariga bardosh bera oladigan, o'zining «zukkoligi» shumliklari bilan har qanday vaziyatdan chiqa oladigan o'smir hayoti ko'rsatilgan. Avtobiografik xarakterga ega bo'lgan bu asar milliy bo'yoqlarga boy bo'lib, unda umuminsoniy g'oya va qarashlar ifoda etilgan. Milliy an'analarimiz turli o'yinlar, urf-odatlarimizni to'la ifoda etgan bu asarda ishtirok etgan har bir qahramonning o'ziga xos o'rni bor. Asarni o'qir ekansiz hech mubolag'asiz o'sha davr kishilarining tasvirlanganligiga amin bo'lasiz. «Shum bola» qissasidan nafaqat o'zbek, balki rus kitobxoni ham bahramand bo'lishi mumkin. Ushbu asar tarjimon A. Naumov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Ayni o'rinda ushbu tarjima asar xususida to'xtalmoqchimiz. Asar G'afur G'ulom tomonidan to'rt bo'limga bo'lingan va ular nomlanmagan, ammo tarjimon asarni 17 bo'limga bo'lganki, har bir bo'limda bosh qahramon boshidan kechirgan sarguzashtlari tasvirlangan va ular hikoyaga qarab nomlangan, ya'ni birinchi bo'lim «Дети старой махалли» — ya'ni «Eski mahalla



bolalari”, “Плов в сладчину” — “Xalfana” — “История Рахмат Хаджи” yoki “Мне надоело” — “Jonimga tegdi”... kabilar. Bu esa kitobxonga asar syujetini eslab qolishda yordam beradi. Tarjimaning ilk sahifasidanoq milliy ruh seziladi : ... В большой чайхане Ильхама чайханщика, ... звучат старые песни в исполнении Туйчи-Хафиза, Хамракула — кори, ... вокруг дастархана... bir qator soʻz va iboralar buning isbotidir. Ushbu hol asarning boshdan oxirigacha saqlanib qolgan. Tarjimashunos olim Gʻ. Salomovning fikrlaricha «asl nusxa fazilatidan muayyan darajada» «kamomad» boʻlishi badiiy tarjima ijodiga xos tushuncha, ammo shum bolaning tarjimasida «kamomad» emas, balki «daromad» koʻzga tashlanadiki, u kitobxonni bir oz chalgʻitib qoʻyadi. Yana Gʻ. Salomov fikrlariga murojaat etamiz, olimimiz quyidagilarni tarjima qusurlari sifatida belgilaydi.

Gʻafur Gʻulomning oʻn ikki jildlik “Mukammal asarlar toʻplami”ning sakkizinchi, toʻqqizinchi va oʻninchi jildlari tarjimalardan tashkil topgan boʻlib, bu uch jildning umumiy hajmi 1600 sahifadan oshadi. Holbuki, ushbu “Mukammal asarlar toʻplami”ga “Qoʻrqinchli Tehron” romanining tarjimasini kabi yirik nashrlar kiritilmagan. Uning adabiy faoliyatida jahon adabiyoti namunalarini rus tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilish katta oʻrin tutadi. U Gorkiy, Lermontov, Mayakovskiy, Pushkin kabi rus yozuvchilarining, belorus adibi Yakub Kolosning, shuningdek, Shekspir, Iogannes Bexer, Bomarshe, Antol Gidash, Lengston Xyuz, Nozim Hikmat singari xorijiy adiblarning asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. AQShning Yuta shtatidagi Brigxamyang Universitetining professori David Montgomeri 14 ming kishini sigʻdiradigan zalda universitet rahbariyati, professor oʻqituvchilar, aspirantlar va talabalar uchun Gʻ. Gʻulom, H. Olimjonning ijodi haqida odatdan tashqari qilgan maʼruzasida: AQShda hozirgi paytda Oʻzbekiston mamlakatiga qiziqish ortib borayotganini, uzoq vaqt bu ikki davlat bir – biridan ajralgan holda yashab kelgani, bir-biri haqida yaxshi va toʻgʻri tasavvurga ega emasligi, endilikda ahvol oʻzgara boshlagani haqida gapirib, oʻzbek xalqining sheʼriyati – goʻzal sheʼriyat, u jahon adabiyotida ulkan voqea ekanligi shu bois oʻzini oʻzbek adabiyoti sheʼriyatini oʻrganishga bagʻishlaganini maroq bilan soʻzlab beradi.

“Bolalar obrazlari Gʻ. Gʻulom prozasida katta oʻrin tutadi. Muayyan darajada ular yangi jamiyatning ramzlari kabi namoyon boʻladilar... Bolalar haqidagi hikoyalardan eng mashhuri “Shum bola” (1936 yil) asaridir. Unda bir bolakayning sarguzashtlari tasvirlangan.

Asar uslubini tushunmaslik, oʻz tilidan unga muvofiq ifoda tarzini topa olmaslik buni uslubiy befarqlik yoki uslubiy ojizlik illati deb taʼriflash mumkin.

Tarjimonda hayotiy tajribaning yetishmasligining kelib chiqadigan nuqsonlar masalan, tarjimon kitobda tasvirlangan xoʻjalik sohasini, ishlab chiqarishini, xalq yoki mamlakat hayotini bilmasligi mumkin.

Tarjimonning badiiy ijodga layoqatsizligi, tilning bilgani bilan, uni his qila olmasligidan kelib chiqayotgan illat. Asl nusxada tasvirlangan xalq hayotining milliy oʻziga xos tomonlarini durust aks yettira olmaslik. Gʻafur Gʻulom talay ocherklar ham



yo'zdi, bularda ham «Xasan Kayfiy» dagidek aql-zakovatni, halol mehnatni ulug'radi. U o'z ocherklarini «ocherklashgan hikoya», deydi, bu bilan ocherklarida quruq hujjat emas, balki inson taqdiri turganligiga ishora qiladi. G'afur G'ulom badiiy publitsistikada ustoz so'z san'atkori sifatida tanildi va umrining oxirigacha bu sohada bayroqdor bo'ldi. Uning publitsistikasi extirosli nutq, chuqur mushohada, falsafiy muhokama bilan birga kichik-kichik hikoyachalar, rivoyatlar, qiziq voqea va yorqin detallar, latifalar, muhim hujjatlar asosiga qurilgan. Bu janrda u teran tarixchi hamda jarchi-tashviqotchi sifatida namoyon bo'ldi. Uning publitsistikasidagi bosh badiiy tamoyil tarixiy chog'ishtirishdir. U «zehnimda aks etgan asriy hodisalarni bir muarrih bir tarixshunos sifatida shu qog'ozlarda qayd qilib o'tmoqchiman», degan edi. O'zi ko'rgan, bilgan voqealarni guvoh sifatida bayon etib, kishini ishontirdi. Bunday «guvohlik berib ayta olish»ning sababi esa, o'zini xalqning bir parchasi sifatida

tasavvur etishi, u bilan doim hamnafas bo'lishi va shu xalq nomidan so'zlashi edi. Adib: «zehnim sizniki, men qalam ushlaydigan barmoq bo'lsam kifoya», deydi.

Demak, G'afur G'ulom o'z g'oyaviy niyati, maqsadi, material talabidan kelib chiqib, turli janrlarga murojaat etadi, xilma-xil bayon usullari va ifoda yo'llarini qo'llaydi. Bu holni uning qissalarida ham kuzatish mumkin.

Qissa (arabcha. – hikoyat, sarguzasht ) ma'nolarini anglatadi. U ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

Xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan voqeaband xarakterdagi asarlarga nisbatan qo'llanganida, qahramon hayoti va sarguzashtlari hikoya qilinishi, ya'ni asarning rivoyaviy xarakteri nazarda tutiladi. Bu o'rinda og'zaki ijro, variantlilik kabi xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Shuningdek, payg 'ambarlar qissasi: (Rabg'uziyning "Qissai ul-anbiyo", Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo") asarlari va og'zaki ijod namunalari qayta ishlanishi – xalq kitoblari: ("Qissai Mashrab", "Ibrohim Adham qissasi", "Zufunun qissasi" kabilar nazarda tutiladi. Bizningcha, badiiy so'z tahlilida asar mohiyatini bevosita matn orqali anglagan muhim. Ya'ni muallifdan matnga emas, matndan muallifga tomon borgan ma'qul. Garchi, "Bolalik" qissasi voqealari memuar tarzda bo'lsa ham, muallif unga bir qancha ijtimoiy ruh bag'ishlaydi. Bu narsa asarning keyingi boblarida ijtimoiy voqealarning yorqinlashuvida ko'rinadi. G'afur G'ulom qissalari kitobxonga manaviy ozuqa beradigan buyuk kuchga ega bo'lgan o'ziga hos bebaho boylikdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. QM Mukarramovna, AG Rahmonaliyevna - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022. Nemis tili darslarida enejayzer o'yinlardan foydalanish haqida ayrim mulohazalar. 91-93-bet
2. Astonova Guzalkhon Rakhmonaliyevna. Lexical Units Related to the Education System in a Comparative Study of Different Languages. American Journal of Social and Humanitarian Research 6 (6), 1-6, 2022



3. Astonova Gozalxon. Yozish konimkasini shakllantirish usullari. Science and Education. 1.2. 400-404, 2020
4. ГР Астонова. ГЕРМАНИЯДАГИ ТАЪЛИМ БОСҚИЧЛАРИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. Евразийский журнал академических исследований 1 (9), 273-277, 2021
5. ГР Астонова. ГЕРМАНИЯ БОШЛАНҒИЧ ВА ЎРТА ТАЪЛИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ. Евразийский журнал академических исследований 1 (9), 95-98, 2021
6. AG Rakhmonalievna. IMPORTANCE OF WRITING SKILLS IN EAARLY FOREIGN LANGUAGE LESSONS INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL 2 (5), 607-610, 2021
7. ГР Астонова. Бошланғич синфларда олмон тилининг ўқитишнинг самарали усуллари. Scientific Journal 1 (6), 1304-1309, 2021
8. AG Raxmonaliyevna. System of Vocation and higher Education in Germany. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal 7 (12), 316-318, 2021
9. AG Raxmonaliyevna. NEMIS TILI DARSLARIDA KAYFIYATNI KO'TARUVCHI O'YINLARDAN FOYDALANISH. Science and Education Scientific Journal 13, 104-106, 2021
10. АстоноваГР, Жураева. М.Т. ПРИМЕНЕНИЕ ГРУППОВОЙ РАБОТЫ НА УРОКАХ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА. ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 2 (12 (145), 158-161, 2019
11. Jo'rayeva SH.X. "O'ZBEK BADIY ASARDAGI QAHRAMON MAVZUSI". Science and Education. 3 (10). 664-667. 2022.
12. Jurayeva Sh.X. "CHET TILINI O'QITISHDA ELEKTRON DARSLIKLARNING ANAMIYATI". Eurasian journal of Academic research. Volume 1, Issue 8. 98-100. 2021.
13. Шалола Жураева, Мохинур Жўраева, ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИҚДА ЛУҒАТШУНОСЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ, Eurasian Journal of Academic Research, 2022/12/19, Volume 2, Issue 13, Pages 626-630.
14. Shalola Jurayeva, Zulhumor Hakimova, TARIXIY SANALAR VIKTOR GYUGONING "BIBIMARYAM IBODATXONASI" TARIXIY ROMANINING MAZMUNI SIFATIDA, Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2022/12/7, Volume 1, Issue 7, Pages 36-41.
15. Yusufjanova, S. M. (2022). GENERAL PROBLEMS OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758), 3(02), 30-35.
16. Yusufjonova, S. M. (2019). Set phrases in German language. International Journal of Student Research, (3), 80-83.
17. Dehqonov Islom Teshaeovich.(2022) Scientific-Theoretical Bases and Principles of Speech Etiquette Units in World Linguistics ("Etiquette De La Parole"). Volume 14. 39-42.



18. Dehqonov Islom Teshaeovich.(2022) FRANSUZ NUTQIY ETIKETIDA PRAGMATIKA VA INTONATSIYA. GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 24.975-978.
19. I.T.Dehqonov.Tarjimashunoslikda ekzotizm tushunchasi va uning tafsifi haqida. (2020) Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 12 (12), 250-253
20. I.T.Dehqonov. Les competences interculturelles, un avantage aupres des recruteurs en etrenger. (2022) Международная научно-практическая конференция 3 (3), 137-139.